

Terms	Atamalar	Izoh
Subspace	qism fazo	\mathcal{F} maydon ustida aniqlangan V vektor fazoning biror L qism to'plami V da aniqlangan algebraik amallarga nisbatan vektor fazosini tashkil etsa, u holda L ga V fazoning qism fazosi deyiladi.
The intersection of subspaces	qism fazolarning kesishmasi	Agar U_1, \dots, U_n lar V vektor fazoning qism fazolari bo'lsa, u holda $U = U_1 \cap U_2 \cap \dots \cap U_n$ ga U_1, \dots, U_n qism fazolarning kesishmasi deyiladi.
The addition of subspaces	Qism fazolar yig'indisi	$\bar{x}_1 \in U_1, \bar{x}_2 \in U_2, \dots, \bar{x}_n \in U_n$ bo'lganda $\bar{x}_1 + \bar{x}_2 + \dots + \bar{x}_n$ ko'rinishdagi barcha yig'indilar to'plamiga U_1, \dots, U_n qism fazolar yig'indisi deyiladi va u $U_1 + U_2 + \dots + U_n$ ko'rinishda belgilanadi.
The right addition of subspaces	qism fazolarning to'g'ri yig'indisi	Agar $U_1 + U_2 + \dots + U_n$ qism fazoning har bir vektori yagona usulda $\bar{x}_1 + \bar{x}_2 + \dots + \bar{x}_n$ ko'rinishda ifodalansa, u holda $U_1 + U_2 + \dots + U_n$ yig'indiga $U_i (i = \overline{1, n})$ qism fazolarning to'g'ri yig'indisi deyiladi va u $U_1 \oplus U_2 \oplus \dots \oplus U_n$ ko'rinishida belgilanadi.